SURUNKALI YURAK YETISHMOVCHILIGIDA CHAP QORINCHA SISTOLIK FUNKSIYASI VA BUYRAK TOMIR REZISTENTLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Baxramova Azima Abbosovna
Buxoro davlat tibbiyot instituti 3-kurs mustaqil izlanuvchisi
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23805055

Dolzarbligi. Ishemik genezli surunkali yurak yetishmovchiligida kardiorenal o'zaro ta'sir kasallikning klinik kechishi va prognozini belgilovchi muhim patogenetik mexanizmlardan biridir. Chap qorincha qisqarish funksiyasining pasayishi tizimli perfuziyaning yomonlashishiga, neyrogumoral tizimlarning faollashuviga va buyrak tomirlarida vazokonstriksiyaning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Natijada buyrak tomir rezistentligi ortib, glomerulyar perfuziya va filtratsiya jarayonlari buziladi. Shu nuqtai nazardan, chap qorincha qon haydash fraksiyasi (ChQ QHF) fenotiplari bilan buyrak tomir rezistentligi va buyrak funksional holati o'rtasidagi munosabatni o'rganish alohida klinik ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi. Ishemik genezli surunkali yurak yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarda chap qorincha qon haydash fraksiyasi fenotiplari bilan buyrak magistral arteriyalarining rezistentlik indeksi, koptokchalar filtratsiya tezligi va albuminuriya darajalari o'rtasidagi bog'liqlikni baholash.

Material va usullar. Tadqiqotga ishemik genezli surunkali yurak yetishmovchiligi bo'lgan 165 nafar bemor kiritildi. Bemorlar chap qorincha qon haydash fraksiyasiga ko'ra uchta fenotipga ajratildi: ChQ QHF <40% bo'lgan 45 nafar bemor, ChQ QHF 40–49% bo'lgan 58 nafar bemor va ChQ QHF ≥50% bo'lgan 62 nafar bemor. Buyrak magistral arteriyalarining mahalliy tomir rezistentligi Doppler ultratovush tekshiruvi orqali RI ko'rsatkichi asosida baholandi. Shuningdek, buyrak funksional holatini baholash uchun koptokchalar filtratsiya tezligi (KFT) bosqichlari va albuminuriya darajalari tahlil qilindi.

Natijalar. Chap qorincha sistolik funksiyasining pasayishi bilan buyrak tomirlaridagi mahalliy qarshilikning izchil ortishi aniqlandi. ChQ QHF <40% bo'lgan bemorlarda buyrak magistral arteriyalarining RI ko'rsatkichi 0,782±0,004 gacha oshgan. Ushbu guruhda yuqori mahalliy vazospazm buyrak koptokchalaridagi perfuzion bosimning kamayishi bilan kechgan. Shu bilan birga, KFTning 3a va 3b bosqichlari hamda A2 mikroalbuminuriya va A3 makroalbuminuriya darajalari ustunligi qayd etilgan. ChQ QHF 40–49% bo'lgan bemorlarda ham buyrak tomir qarshiligining oshishi kuzatilib, buyrak funksional buzilishlari nisbatan yengilroq darajada namoyon bo'lgan. Ushbu fenotipda asosan KFTning 2-bosqichi va A2 darajadagi mikroalbuminuriya ustunlik qilgan.

ChQ QHF ≥50% saqlangan bemorlarda esa buyrak tomirlaridagi rezistentlik nisbatan past bo'lib, RI 0,698±0,003 ni tashkil etdi. Ushbu bemorlarda mahalliy buyrak qon oqimi nisbatan barqaror saqlangan. Buyrak filtratsiya funksiyasi ko'pchilik bemorlarda KFTning 1–2 bosqichlari chegarasida bo'lib, A1 normoalbuminuriya darajasi ustunlik qilgan.

Shunday qilib, chap qorincha sistolik funksiyasi pasaygan sari buyrak tomirlarining mahalliy rezistentligi ortib borishi va bunga parallel ravishda buyrak filtratsiya funksiyasining yomonlashishi aniqlandi. ChQ QHFning pasayishi, RI ortishi, KFT kamayishi va albuminuriyaning kuchayishi yagona kardiorenal patogenetik zanjirni tashkil etishi ko'rsatildi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Xulosa. Ishemik genezli surunkali yurak yetishmovchiligida chap qorincha sistolik disfunksiyasining kuchayishi buyrak magistral arteriyalaridagi tomir qarshiligining oshishi bilan uzviy bog'liq. ChQ QHF <40% bo'lgan bemorlarda yuqori RI buyrak filtratsiya funksiyasining sezilarli pasayishi va albuminuriyaning yuqori darajalari bilan birga kechadi. ChQ QHF saqlangan bemorlarda esa buyrak gemodinamikasi va filtratsiya funksiyasi nisbatan barqaror saqlanadi. Shu sababli ChQ QHF va buyrak RI ko'rsatkichlarini kompleks baholash kardiorenal disfunksiyaning og'irligini aniqlash va yuqori xavf guruhidagi bemorlarni ajratishda amaliy ahamiyatga ega.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.